



QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **24,4** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **5,3** mingtaga kamaygan yoki **17,8 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **10,3** birlikni tashkil qildi.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yilning yanvar-iyunida **2,3** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **61,7 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2024- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi

2020-2024- yillar 1- iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
5731	Qarshi sh.	5004
1613	Shahrisabz sh.	1468
1540	G'uzor	1189
1319	Dehqonobod	936
1975	Qamashi	1632
2089	Qarshi	1774
2370	Koson	1652
2049	Kitob	1690
1341	Mirishkor	925
937	Muborak	820
1440	Nishon	1303
1470	Kasbi	1167
755	Ko'kdala	737
1452	Chiroqchi	1248
1483	Shahrisabz	1215
2180	Yakkabog'	1682

2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **24442** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **2302** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Qarshi shahrida **5004** tani yoki jamiga nisbatan **20,5 %** ni tashkil etdi.


2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbatli

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli, birlikda)*

Qarshi sh.	16,8
Mirishkor	16,1
Muborak	13,9
Nishon	13,9
Koson	11,1
Qarshi	10,4
Shahrisabz sh.	10,0
Kitob	9,7
Dehqonobod	9,1
Yakkabog'	9,1
Kasbi	9,0
Ko'kdala	8,9
Shahrisabz	8,7
G'uzor	8,1
Qamashi	7,7
Chiroqchi	7,4



Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soninining har 1000 aholiga nisbatli 1- iyul holatiga, birlikda



2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan **10,3** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **2,0** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida **16,8** birlik, Mirishkor tumanida **16,1** birlik, Muborak tumanida **13,9** birlik, Nishon tumanida **13,9** birlik va Koson tumanida **11,1** birlikka yetdi.


* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Qarshi shahri
– 16,8 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Kitob tumani
– 9,7 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Chiroqchi tumani
– 7,4 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida **16,8** birlik, Mirishkor tumanida **16,1** birlik, Muborak tumanida **13,9** birlik, Nishon tumanida **13,9** birlik, Koson tumanida **11,1** birlik, Qarshi tumanida **10,4** birlik, Shahrisabz shahrida **10,0** birlik, Kitob tumanida **9,7** birlik, Dehqonobod **9,1** birlik va Yakkabog' tumanida **9,1** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- iyul holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Qarshi shahri

16,8

Muborak tumani

13,9

Koson tumani

13,9

11,1

Mirishkor tumani

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

489	Qarshi sh.	418
149	Shahrisabz sh.	131
251	G‘uzor	108
192	Dehqonobod	56
200	Qamashi	136
276	Qarshi	211
326	Koson	174
240	Kitob	161
174	Mirishkor	76
98	Muborak	78
221	Nishon	128
268	Kasbi	121
133	Ko‘kdala	126
153	Chiroqchi	101
241	Shahrisabz	119
319	Yakkabog‘	158

2024- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Qarshi shahri – **18,1** %, Qarshi tumani – **9,0** %, Koson tumani – **7,6** %, Kitob tumani – **7,0** %, Yakkabog‘ tumani – **6,9** %, Qamashi, tumani- **5,9** %, Shahrisabz shahar – **5,7** %, Nishon tumani – **5,6** %, Ko‘kdala tumani – 5,5% hissalariga to‘g‘ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **793** ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **416** ta hamda sanoatda **425** ta yangidan tashkil etilgan.

Tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Qarshi shahrida **418** ta, Qarshi tumanida **211** ta, Koson tumanida **174** ta hamda Kitob tumanida **161** ta yangidan tashkil etilgan.

2023- y. 2024- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-iyuni davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-iyun oylari davomida jami **20119** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **6637** (yoki **33,0 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **5615** (yoki **27,9 %**) ta, sanoat sohasida – **3377** (yoki **16,8 %**) ta, xizmatlar sohasida – **3617** (yoki **18,0 %**) ta va qurilish sohasida – **873** (yoki **4,3 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi (yanvar-iyun oylarida), % da

2024- yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **64,6** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **0,3** punktga ko'paygan. Ko'payishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining kamayishi bilan ifodalanadi.




2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **99,3** % ni, chakana savdoda **95,2** % ni, yo'lovchi aylanmasida **94,8** % ni, yo'lovchi tashishda **91,2** % ni, yuk tashishda **87,6** % ni, qurlilishda **73,9** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati






Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m



2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5158,4** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (**1091,5** mlrd. so‘m), Chiroqchi (**420,5** mlrd. so‘m), Qarshi (**319,2** mlrd. so‘m), Mirishkor (**282,8** mlrd. so‘m) va Kasbi (**174,9** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Dehqonobod tumanida (**148,1** mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2024- yil yanvar-iyunida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 30,2 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-iyunida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Ko‘kdala	100,0
Shahrisabz sh.	87,1
Chiroqchi	87,2
Mirishkor	67,2
Shahrisabz	69,3
Qamashi	59,3
Muborak	65,4
Yakkabog'	43,4
Koson	45,1
Qarshi sh.	48,1
Kitob	36,2
Kasbi	16,3
Qarshi	22,1
Dehqonobod	27,2
G’uzor	9,4
Nishon	5,5

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Ko‘kdala tumani (**100,0 %**), Shahrisabz shahri (**87,1 %**), Chiroqchi tumani (**87,2 %**), Mirishkor tumani (**67,2 %**), Shahrisabz tumani (**69,3 %**), Qamashi tumani (**59,3 %**), Muborak tumani (**65,4 %**), Yakkabog ‘ tumani (**43,4 %**), Koson tumani (**45,1%**), va Kitob tumani (**36,2 %**) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Yakkabog'	152,5	94,2
Shahrisabz	131,7	90,1
Chiroqchi	189,1	67,7
Ko'kdala	27,5	94,1
Kasbi	81,1	92,4
Nishon	73,6	20,5
Muborak	110,7	23,0
Mirishkor	40,9	82,8
Kitob	156,2	93,1
Koson	212,8	70,9
Qarshi	282,2	79,8
Qamashi	100,7	97,0
Dehqonobod	66,7	96,5
G'uzor	268,7	48,7
Shahrisabz sh.	149,1	75,4
Qarshi sh.	1221,8	72,1

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2024- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3265,3** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **64,9** % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **98,3** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qarshi shahri (**1221,8** mlrd. so'm), G'uzor (**268,7** mlrd. so'm), Qarshi (**282,2** mlrd. so'm), Kitob (**156,2** mlrd. so'm), Chiroqchi (**189,1** mlrd. so'm), Koson (**212,8** mlrd. so'm), hamda Yakkabog' (**152,5** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **8248,1** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **42,1 %**ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **209,7 %**ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Nishon tumani (**4576,5** mlrd. so'm), G'uzor tumani (**429,5** mlrd. so'm), Qarshi shahri (**631,2** mlrd. so'm), Chiroqchi tumani (**337,7** mlrd. so'm), Shahrisabz shahri (**402,3** mlrd. so'm), Yakkabog' tumani (**272,7** mlrd. so'm), Muborak tumani (**183,4** mlrd. so'm), Kitob tumani (**263,0** mlrd. so'm) hamda Koson (**140,5** mlrd. so'm) tumani larida qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi


Qarshi sh.	631,2
Shahrisabz sh.	402,3
G'uzor	90,6
Dehqonobod	429,5
Qamashi	73,7
Qarshi	15,7
Koson	103,0
Kitob	58,4
Mirishkor	263,0
Muborak	4,8
Nishon	183,4
Kasbi	90,4
Ko'kdala	115,6
Chiroqchi	36,0
Shahrisabz	28,3
Yakkabog'	46,1
	337,7
	91,7
	66,4
	49,1
	272,7
	310,2

■ ulushi, % ■ hajmi, mlrd. so'm

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **16644,2** mld. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **99,3** % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **103,9** % ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mld. so‘mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Koson (**1596,8** mld. so‘m), Chiroqchi (**1570,1** mld. so‘m), Kitob (**1410,2** mld. so‘m), Qamashi (**1323,9** mld. so‘m), Yakkabog’ (**1304,1** mld. so‘m) hamda Nishon (**1167,9** mld. so‘m) tumanlarida qayd etildi.


2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Yakkabog'	1304,1	99,3
Shahrisabz	1056,2	100,0
Chiroqchi	1570,1	100,0
Ko‘kdala	919,7	100,0
Kasbi	1156,0	97,3
Nishon	1167,9	96,8
Muborak	954,3	99,9
Mirishkor	1103,2	99,1
Kitob	1410,2	99,5
Koson	1596,8	100,0
Qarshi	1122,2	99,7
Qamashi	1323,9	100,0
Dehqonobod	703,5	99,9
G‘uzor	970,4	99,7
Shahrisabz sh.	133,9	100,0
Qarshi sh.	151,8	96,2

hajmi, mld. so‘mda


ulushi, % da

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **9864,5** mlrd. so‘mni yoki umumiyligi chakana savdo tovar aylanmasining **95,2 %** ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **107,8 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Yakkabog'	572,3	98,9
Shahrisabz	327,7	84,1
Chiroqchi	900,7	97,7
Ko‘kdala	345,8	93,2
Kasbi	458,7	99,1
Nishon	426,3	99,2
Muborak	312,0	99,5
Mirishkor	375,3	99,2
Kitob	549,2	98,0
Koson	847,7	94,1
Qarshi	410,5	98,6
Qamashi	764,8	99,1
Dehqonobod	355,0	99,0
G’uzor	433,7	95,4
Shahrisabz sh.	918,3	97,1
Qarshi sh.	1 866,5	88,4


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (**1866,5** mlrd. so‘m), Shahrisabz shahri (**918,3** mlrd. so‘m), Koson (**847,7** mlrd. so‘m), Chiroqchi (**900,2** mlrd. so‘m), Qamashi (**764,8** mlrd. so‘m), Yakkabog’ (**572,3** mlrd. so‘m) Kitob (**549,2** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2019 va 2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, mlrd. so‘m



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mlrd. so‘mda

Qarshi sh.	1192,5
Koson	474,0
Kitob	560,4
Qamashi	477,5
Shahrisabz	459,3
Qarshi	474,0
Muborak	336,1
Yakkabog‘	442,8
Mirishkor	397,1
Kasbi	377,4
Nishon	301,7
G‘uzor	300,7
Chiroqchi	304,2
Shahrisabz sh.	265,3
Dehqonobod	238,6
Ko‘kdala	109,8

2024- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6941,5** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmining **64,7 %** ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **110,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Qarshi shahri (**1192,5** mlrd. so‘m), G‘uzor tumani (**300,7** mlrd. so‘m), Kitob tumani (**560,4** mlrd. so‘m), Qamashi tumani (**477,5** mlrd. so‘m), Shahrisabz tumani (**459,3** mlrd. so‘m), Qarshi tumani (**474,0** mlrd. so‘m), Muborak tumani (**336,1** mlrd. so‘m) va Yakkabog‘ (**442,8** mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan turlari (yanvar-iyun oylarida)

3045,0	Savdo xizmatlari	43,9
1907,5	Transport xizmatlari	27,5
406,7	Shaxsiy xizmatlar	6,0
417,9	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	5,9
294,2	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	4,2
238,7	Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	3,4
226,9	Ijara xizmatlari	3,3
110,4	Boshqa xizmatlar	1,6
109,1	Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,6
50,1	Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,7
53,2	Ta’lim sohasidagi xizmatlar	0,8
40,5	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	0,6
41,3	Moliyaviy xizmatlar	0,6

Hajmi, mlrd. so‘mda


Ulushi, foizda

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **43,9 %** (**3045,0** mlrd. so‘m), transport xizmatlarida – **27,5 %** (**1907,5** mlrd. so‘m), shaxsiy xizmatlarda – **6,0 %** (**406,7** mlrd. so‘m) hamda Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlarida – **5,9 %** (**417,9** mlrd. so‘m) ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,6 %** (**41,3** mlrd so‘m) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-iyun oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Yakkabog'	1416,2	25,4
Shahrisabz	3212,5	37,6
Chiroqchi	2036,4	91,8
Ko'kdala	7596,3	100,0
Kasbi	4465,9	8,5
Nishon	582,7	0,6
Muborak	1340,1	73,1
Mirishkor	2864,1	100,0
Kitob	6173,0	99,7
Koson	7083,8	42,3
Qarshi	2538,5	4,8
Qamashi	3725,3	87,1
Dehqonobod	1301,6	100,0
G'uzor	2612,0	79,4
Shahrisabz sh.	2309,8	100,0
Qarshi sh.	4052,0	33,0


hajmi, ming. AQSH dollar ulushi, % da

2024- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **53,3** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **19,3** % ini tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

**2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar
(ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**



2024- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **229,2** million AQSH dollarini yoki jami importning **68,9 %** ni tashkil etdi.


**2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan
amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami
importdagi ulushi, % da**



2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Mirishkor, Yakkabog', Chiroqchi va Ko'kdala tumanlarida – **100 %**, Koson tumanida – **92,7%**, Qarshi shahrida – **85,3 %**, G'uzor tumanida – **68,5 %** hamda Dehqonobod tumanida – **64,2 %** ni tashkil etdi.

Nishon	78,0
Qamashi	4,3
Kasbi	13,7
Qarshi	21,7
Shaxrisabz	41,8
Kitob	69,4
Muborak	84,8
Dehqonobod	64,2
G'uzor	68,5
Koson	92,7
Qarshi sh.	85,3
Ko'kdala	100,0
Shahrisabz sh.	81,8
Chiroqchi	100,0
Yakkabog'	100,0
Mirishkor	100,0

Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati



2024- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **87,6** % ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,6** % ni tashkil qildi.


2024- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **89,0** % ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **151,3** % ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,2** % ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **127,9** % ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,8** % ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,5** % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil II- chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil II- chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da **1063** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **601 (56,5 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **372 (34,9 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **90 (8,6 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **40,6 %** (**432** ta), xizmatlar sohasida – **26,5 %** (**313** ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **10,4 %** (**111** ta) sanoatda – **12,7 %** (**135** ta), qurilishda – **9,8 %** (**103** ta), ni tashkil etdi.

2024- yil II- chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyati turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil II- chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

283	Qarshi sh.	25,7
90	Shahrisabz sh.	8,2
29	G‘uzor	2,6
31	Dehqonobod	2,8
50	Qamashi	4,5
97	Qarshi	8,8
71	Koson	6,4
76	Kitob	6,9
35	Mirishkor	3,2
41	Muborak	3,7
49	Nishon	4,5
47	Kasbi	4,3
18	Ko‘kdala	1,6
65	Chiroqchi	5,9
52	Shahrisabz	4,2
67	Yakkabog‘	6,1


Jami birlikda

Ulushi, foizda

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Qarshi shahri (**283** ta), Qarshi (**97** ta), Shahrisabz shahri (**90** ta), Kitob (**76** ta), Koson (**71** ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning II- choragi uchun umumiyligi iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiyligi iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning II- choragida **416** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning II- choragiga kelib esa **601** taga yetgan yoki 2019- yilning II- choragiga nisbatan **185** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilda **340** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-iyunida **372** ta yoki **32** taga ko'paygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **60** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **90** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **30** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning II- choragida umumiyl iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



yaxshilanish

o‘zgarishsiz

yomonlashish


Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning II- choragida **408** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning II- choragiiga kelib esa **615** taga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **207** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning II- choragida **381** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning II- choragiiga kelib esa **306** ta yoki **75** taga kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2019- yilning II- choragida **74** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning II- choragiiga kelib, bu ko‘rsatkich **72** tani tashkil etib, **2** taga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirdorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning II- choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning II- choragida **51,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **56,5** % ga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **5,5** % birlik oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilda **44,1** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning II- choragida **34,9** % yoki **9,2** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **4,9** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib, bu ko'rsatkich **8,6** % ga yetgan yoki **3,7** % ga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirdorlik subyektlarining 2019-2024- yillar II- choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning II- choragida **49,2** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilga kelib esa **61,9** % ga yetgan yoki 2019- yilning II- choragida nisbatan **12,7** % birlik ko‘paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining ulushi 2019- yilning II- choragida **41,7** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-iyunida **30,8** % yoki **10,9** % birlikka kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2019- yilning II- choragida **9,1** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning II- choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **7,2** % yoki **1,9** % birlikka kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II- choragida kuzatuvda ishtirot etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash,
% da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024- yilning II- choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **22,8 %** ni, xizmatlar sohasida – **15,7%** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **6,8 %** ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **15,5 %** ni, xizmatlar sohasida – **8,2%** ni, sanoat sohasida – **4,4 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida – **2,5 %** ni, xizmatlar sohasida – **2,6 %** ni, sanoatda – **1,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024- yilning II- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni yaxshilanish deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi savdoda – **24,5** % ni, xizmatlar sohasida – **16,8** % ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **7,5%** ni, tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin **3** oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi savdoda – **13,7** % ni, xizmatlar sohasida – **7,5** % ni, sanoatda – **3,4** % ni, tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni yomonlashish deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi savdoda – **2,3** % ni, xizmatlar sohasida – **2,2** % ni, sanoatda – **1,1** % ni, tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	57,2	35,0	8,0
Band bo‘lganlar soni	48,7	45,1	6,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	53,6	39,9	6,5
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	37,9	53,1	9,0
Raqobat muhiti	59,0	35,1	5,9

	Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	66,2	31,0	2,8
Band bo‘lganlar soni	55,8	42,0	2,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	60,7	36,7	2,6
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	47,2	47,7	5,1
Raqobat muhiti	66,1	31,6	2,3

* Faqat raqobat muhitiga tegishli


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

2024- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

* Faqat raqobat muhitiga tegishli